



Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari

Ahmedova Shahlo Abduhakimovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy

universiteti "Huquqiy fanlar" kafedrası

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi"

yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada Islom mintaqa madaniyatining eng yuksak qadriyati tavhid e'tiqodini butun qudrati, mazmuni, amaliy mohiyati va ko'lami bilan anglab etish mintaqaning ilg'or ziyo egalari uchun necha asrlik yumush bo'lishini ko'rib chiqamiz. Bu yo'lda mintaqa ma'naviyati kamolot yo'lining bir qator pillapoyalarini bosib o'tdi. Ulardan dastlabki pog'onasini Sunna bosqichi deb atash mumkin.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat va ma'rifat, ma'rifatning tor va keng ma'nolari, asotir tafakkur, Sunna bosqichi, ibrat ma'rifati, ilm ma'rifati, riyozat ma'rifati, "Majoz tariqi", mehr ma'rifati, "xavos" va "avom", "ma'rifat vodiysi", irsiy birodarlar uyushmasi, "budun", sarbadorlar, temuriylar, "xos" va "avom", haqiqat ishq.

Kirish

Asotir tafakkur hukmronligidan e'tiqodiy bag'rikenglik aro milliy tafakkurga o'ta boshlagan turkiy elatlar tavhid e'tiqodi tufayli qo'shni xalqlar bilan yagona madaniy mintaqaga birlashdilar. Ushbu yagona madaniy birlik doirasida milliy ma'naviyatimiz yangi



ufqlar sari yuksalib bordi. VIII – XV asrlarni o'z ichiga olgan ushbu qutlug' davr o'z ichki takomiliga ko'ra 4 bosqichga bo'linadi:

1. Sunna bosqichi (VIII – IX asrlar).
2. Islom ma'rifatchiligi bosqichi (X - XI asrlar).
3. Tasavvuf tariqatlari bosqichi (XII - XIII asrlar).
4. «Majoz tariqi» bosqichi (XIV - XV asrlar).

Bularning har biri haqida, yuqorida ta'kidlanganidek, "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi" fanida batafsil so'zlanadi. Hozircha faqat bir narsani ta'kidlash lozimki, Islom mintaqa madaniyati o'zidan oldingi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlarni chuqur o'zlashtirdi, mushriklik e'tiqodining rad etilishi aslo qadimgi madaniyat samaralarini yoppasiga rad etish bo'lgan emas. Qolaversa, islom mintaqa madaniyati doirasidagi milliy ma'naviyatimiz rivojining birinchi pog'onasi bo'lmish Sunna bosqichi, birinchi navbatda, ibratga qurilgan bo'lsa ham, hech qachon ilmni, riyozatni, mehrni inkor etmagan. Keyingi bosqichlarning ham yetakchi tamoyillariga biz alohida urg'u berganligimiz oldingi bosqichdagi tamoyillar yo'q bo'lib ketganini yoki nazardan chetda qolganini bildirmaydi. Milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining har bir davri, har bir bosqichi o'ta murakkab mazmunga, turli tamoyillarining o'zaro uzviy tutashgan muayyan uyg'unlikdagi tizimiga ega bo'lib, ularning har birini alohida o'rganish lozim. Ammo hozircha biz masalani ilk umumiy yondoshuv darajasida talqin etganimiz sababli, bu o'rinda eng yorqin tamoyillargagina e'tibor qaratamiz. Shu bilan birga ko'p nozik jihatlar soyada qolib keta yotganini ham eslatib o'tamiz.

Bugungi kunda biz "ma'rifat" tushunchasini ba'zan juda tor talqin qilib, ilm o'rganish, turli sohalarda bilim hosil qilish deb o'ylaymiz. Asli aql bilan anglab yetiladigan bilimlarni o'zlashtirishga intilish "ma'rifat vodiysida"gi bir yo'nalish, xolos. Islom mintaqasida ma'rifatning bunday talqini faqat X-XI asrlardagina yetakchi yo'nalish bo'lib, Forobiy singari faylasuflar, Yusuf Xos Hojib kabi alloma shoirlar tomonidan olg'a surilgan. Ular



aqlni, mantiqiy tafakkur yo'li bilan o'zlashtiriladigan bilimlarni insonni baxt-saodat sari eltuvchi asosiy yo'l deb tushunganlar. XVIII-XIX asr Yevropa madaniyatida ham shu fikr yetakchi bo'ldi.

Ammo bundan oldingi davrda ham, keyin ham ko'p ulug' allomalar ilmni ma'rifatning yagona yo'li deb bilgan emaslar.

a) Sunna bosqichi – Ibrat ma'rifati; Muhaddislar nazdida hazrati payg'ambarimiz ibрати inson ma'naviy kamoloti uchun bosh mayoqdir. Shu sababli ular umr bo'yi riyozat chekib, hadis to'plaganlar, ularni tahqiq etib "sahih", ya'ni haqiqiy, ishonchlilarini "zaif"laridan ajratib tasniflaganlar. Natijada, inson hayoti uchun nihoyatda muhim muammolarga javob bera oladigan islomiy axloq-odob qoidalar tizimi vujudga kelgan. Ibrat yo'li bugun ham shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi muhim yo'nalishlardandir.

Asli ma'rifatning ilk yo'li ibratdir. Go'dak yorug' dunyoga kelib, yashash ishq bilan hayotga intilar ekan, ishni ibratdan boshlaydi. Ya'ni, ota- ona ibрати, akalar va opalar, buvilar va bobolar ibрати bilan voqelikka o'z munosabatini shakllantira boshlaydi. Bu dunyo aslida ibrat uchun yaralgan. Daraxtlarning quyosh sari bo'y cho'zmog'i - ibrat, jonivorlarning o'z taqdiriga rizoligi - ibrat, tog'lar ustivorligi - ibrat, ummonlar teranligi - ibrat, quyosh va oy xizmati, kecha va kunduz navbati - ibrat. Payg'ambarlar sidqi, valiylar karomati, allomalar ilmi, zohidlar taqvosi, oshiqalar ishq, tashabbuskorlar g'ayrati, oqillar tadbiri, hayo egalarining andishasi, siddiqlar ibosi, onalar mehri, otalar bag'rikengligi, go'daklar beg'uborligi, keksalar donishmandligi bularning barchasi inson uchun ibratdir.

Yomondan yomonlikni anglab, undan qaytmoq ibrat, yaxshidan yaxshilikni anglab unga ergashmoq - ibrat. O'g'rining taqdiri - ibrat, fothihlar umri - ibrat, sotqinlar tubanligi - ibrat. Nima ibrat emas? Barchasi ibrat. Ibrat ola bilmoq - ma'naviyat, ko'rib - ibrat olmaslik - ma'naviy so'qirlikdir. Ammo ibrat taqlid emasdir, ibrat o'rniga taqlid - dil ko'zining ko'rligiga dalolatdir, qachonki, kimki, qayerda, qaysi zamonda ibrat o'rnini taqlid egallasa,



ma'naviyatning o'lgani - shudir. Masalan, Payg'ambarimizning ayollarga munosabatini olsak ul hazratning ayollarga bo'lgan shafqati, mehri, sadoqati, adolati - ibrat. Ul hazrat hayoti voqeligidan faqat ko'p xotin olishga ruxsatni ko'rish - ul hazratni ko'p xotinlikda ayblash - musulmon uchun xiyonat, o'zga uchun tuhmat. Har ikki oxirgi hukm - mohiyatdan uzoq zohirbinlik va jaholat, shayton vasvasasidir. Bir necha ayolga uylanib, ularga payg'ambar shafqati, mehri, adolati va himmatini ko'rsata olaman deb, o'z-o'ziga firib berish - takabburlik, shahvatparastlik va g'aflatning birgalashib insof va inson tafakkuri ustidan hukm o'rnatishi, inson ma'naviy halokatining ibtidosidir.

b) Islom ma'rifatchiligi bosqichi – Ilm ma'rifati; Ma'rifatning yana bir buyuk o'chog'i ilmdir. Ilmni Shaxs kamolotining ikkinchi bosqichi deb hisoblash mumkin. Agar bolaning ilk tarbiyasi ko'proq atrofidagi kattalardan o'rganish, o'qigan-eshitgan ertak qahramonlaridan ibrat olish asosida bo'lsa, o'smir yoshiga o'tishidan uning shuurida hayot hodisalariga tahliliy yondoshuv uyg'onadi. Maktabda ham shu sababli alohida fan asoslaridan ta'lim berish 6-7 sinflardan boshlanadi. Maxsus ilmlarga chuqur kirib borish esa oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Demak, ilmiy tafakkurning shakllanishi balog'at yoshi bilan bog'liq. Albatta, hayotga ilm asosida yondoshuv barchada bir xil darajada bo'lish qiyin. Haqiqiy ilmga qobillik alohida iste'doddur. Ilm - tafakkur bilan bo'ladi, axborot yig'ish ilmga tayyorgarlik bo'lishi mumkin, undan ortiq emas. Ilm - asli ajdodlar ibratidir! Payg'ambarimiz hayoti - ibrat, Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati ibrat, "Jome' as-Sahih" kitobi esa ilmdir. Forobiyning ilm yo'lidagi fidoiyligi ibrat, "Fozil shahar fuqarolarining qarashlari" risolasi esa ilmdir. "Qonun fi-t-tib" - ilm, Ibn Sinoning ilmga chanqoqligi esa ibratdir.

v) Tasavvuf tariqatlari bosqichi – Riyozat ma'rifati. Ammo ilm va aql qudrati inson va jamiyat ma'naviy takomili uchun yetarli emasligi sezilib qoldi. Irfoniy takomil, riyozat yo'li mintaqa xalqlari ma'naviyatida tobora keng ko'lam kasb etdi. Haqiqat ishq iroda qudratini sinay boshladi. Inson haqiqat yo'lida o'zlikdan kechishni o'rgandi. Dillar xudbinlik zangidan



poklana boshladi. Albatta, oriflik har kimga ham nasib etmaydi, valiylik rutbasi bugungi bizning tasavvurlarimizdan behad yuqoridir. Lekin ma'naviyat haqiqat yo'lida ruhiyat safarbarligi ekanligini ajdodlar bizga anglatdilar.

Tasavvuf ahli ya'ni so'fiylar, ibrat va aqlga, bilimga tayanishni yetarli deb topmay, riyozat yo'lini, ruhiy safarbarlik, iroda qudratini namoyish etib, nafsni poklash yo'llarini ishlab chiqdilar. Tasavvuf ma'rifati o'zi bir hududsiz olam. Uning o'z maqom va hollari mavjud. XII-XIII asrlarda o'ndan ortiq tasavvuf suluklari (yo'llari) shakllangan. Jumladan, Markaziy Osiyoning o'zida Yassaviya, Qodiriya, Kubraviya kabi turli yo'nalishlar keng urf bo'lgan. Bularning har biriga batafsil to'xtalinsa, so'z uzayadi. Riyozat chekib ko'ngilni poklash, uni xudbinlik zangidan tozalash tasavvuf suluklarining asl maqsadidir. Inson o'z boshiga tushgan, hayotida ro'y bergan qiyinchiliklar, turli balo-yu kulfatlarga chidashi, toqat qilishi sabr-bardosh deyiladi. U hali riyozat emas. Haq yo'lida ongli ravishda inson o'z oldiga ulug' bir maqsadni belgilab, unga yetishish uchun ixtiyoriy ravishda barcha qiyinchiliklarni bo'yinga olib, to'siqlarni yengib o'tib, olg'a intilishigina riyozat bo'ladi. Inson riyozat chekmay umuman biror narsaga erishishi qiyin. Xalqimiz shuning uchun, sodda qilib, "jondan kechmasang, jonona qayda", deydi. Darhaqiqat, riyozatsiz na u dunyo, na bu dunyo saodati insonga nasib bo'lmaydi.

g) «Majoz tariqi» bosqichi – Mehr ma'rifati. XIV asrga kelib Markaziy Osiyoda tugal shakllangan naqshbandiya suluki hazrati Bahovuddin Naqshband olg'a surgan mashhur "dil ba yoru, dast ba kor" shiori orqali ma'naviy kamolot egalarini yangi, yuqoriroq bosqichda amaliy faollikka undadi. Ayni shu davrdan mumtoz adabiyotda yangi yo'nalish, Navoiy ta'biri bilan aytganda, "majoz tariqi" shakllana boshladi. Bu yo'nalishning mohiyatida yangicha talqin etilgan "majoz ishq" yotadi. Hanuzgacha mumtoz adabiyotimizga doir tadqiqotlarda Alisher Navoiy aniq farqlab bergan "haqiqat tariqi" va "majoz tariqi" yo'nalishlari mavjudligi jiddiy e'tiborga olinmaydi, "majoz ishq" iborasi jo'ngina "dunyoviy ishq" deb talqin etish bilan chegaralanadi. Darhaqiqat, irfoniy adabiyot



namoyandalari “majoz” tushunchasini shunday tushunib va tushuntirib kelganlar. Ammo mumtoz adabiyotda Amir Xusrav Dehlaviydan boshlab “ishqi majoziy” tushunchasining talqini o’zgara boshladi. Alisher Navoiy umrining oxirida ushbu yangicha talqin mohiyatiga ilmiy aniqlik kiritish maqsadida “ishq”ni ikki (“ishqi haqiqiy” va “ishq majoziy”) emas, balki uch qismga ajratib: “avom ishq”, “xos ishq”, “siddiqlar ishq” deb atadi. Shunday qilib, biz “dunyoviy muhabbat” deb ta’riflaydigan “avom ishq”dan ham, “ilohiy muhabbat” deb ajratadigan “siddiqlar ishq” yoki “ishqi haqiqiy”dan ham farq qiluvchi alohida ma’naviy voqelik – “xos ishq” mavjudligi aniq bo’ldi. Uning asl mohiyati poklik, beg’arazlik bilan bog’liq. “Xos ishq” egalari insonga, butun voqelikka “Oliy haqiqatning mazhari” (inson ko’ziga namoyon bo’lishi) deb qaraydilar va shunga muvofiq munosabatda bo’ladilar. “Majoz haqiqatning ko’prigidir”, degan hadisning mazmun-mohiyati shunda. “Xos ishq” egalari fanoda baqoni sevadilar, insonga “haqiqat asrorining ganjinasi” bo’lgan ko’ngil mulki tufayli mehr qo’yadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. -T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006. -448 b
2. Qur’oni karim (Abdulaziz Mansur tarjimasi). T., 2001
3. Imom Buxoriy. Jome’ as-sahih. 1-4 jildlar, T., 1990-1995.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008.
5. Karimov I.A. Istiqlool va ma’naviyat. T., 1994.
6. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo’lida. T., 1998